

**URGANCH SHAHAR AHOLISI JOYLASHUVI, DINAMIKASI VA
BANDLIK DARAJASI**

Xamroyev Muxtor Ozodovich,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti

e-mail: mukhtorkhamraev@gmail.com

Toxirova Muhayyo Hamid qizi,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170459>

Jamiyat taraqqiyot jarayonida aholining shaxsiy iste'moli bilan birga, aholining o'zini takror barpo qilinadi – kishilarning avlodlari tarbiyalanadi va voyaga yetkaziladi. Shuning uchun ham aholini geografik jihatdan o'rganishida quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- 1) Aholi – ishlab chiqarish subyekti, barcha moddiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi;
- 2) Ishlab chiqarilgan jami ijtimoiy mahsulotlardan ma'lum qismining is'temolchisi;
- 3) Aholi butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zi ham takror barpo qilinishi zarur.

Aholi manzilgohlari ijtimoiy mehnat taqsimotining mahsuli sifatida vujudga kelgan asosiy tipi, hozirgi zamonda aholining eng keng tarqalgan yashash formasidir. Shahar bilan qishloqni bir – biridan ajratib tutadigan asosiy belgi – ularning qishloq xo'jaligida bajaradigan funksiyasidir [7].

Mamlakatimiz aholi manzilgohlari tarixan sug'oriladigan voha va vodiylarida hamda savdo-sotiqqa qulay karvon yo'llarida shakllangan. Xorazm viloyati shaharlarining boy tarixi va madaniyatida gidrografik omil (Amudaryo deltasi) hamda hududni kesib o'tgan temir yo'l (Chorjo'y-Toshhovuz-Beynau) katta rol o'ynagan. Xorazm viloyati shaharlar to'ri kam rivojlangan va sust urbanizatsiyalashgan mintaqalardan biridir. O'zbekiston shaharlarining 3 ta shahar (Urganch, Xiva va Pitnak) hamda 7 ta shaharcha (Gurlan, Qo'shko'pir, Chalish, Xazorasp, Xonqa, Shovot, Yangibozor) va 51 ta “yangi” shahar manzilgohlari mavjud. Xorazm xo'jaligining bazaviy sohalarida intensiv qishloq xo'jaligi, yengil, oziq-ovqat sanoati va turizm yetakchi o'rinda turadi. Ta'kidlanganidek, voha aholi manzilgohlari shakllanishini an'anaviy ravishda irrigatsiya shoxobchalari, xususan, kanal va ariqlar belgilaydi. Irrigatsiya shoxobchalarining hudud bo'ylab yelpig'ichsimon shaklda tarqalishi, iqtisodiyot tarmoqlari va aholi manzilgohlari joylashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Binobarin, hudud aholisi asosan Amudaryo

quyi oqimining chap sohilida qadimiy obkor dehqonchilik mintaqasida joylashgan. Toshsoqa-Polvon, Shovot, G‘azavot hamda Daryoliq-Qilichniyozboyarna kanallari, ulardan suv oladigan ko‘plab ariqlar bo‘ylab aholi manzilgohlari shakllangan va rivojlangan. Shu bois, viloyat shaharlarining ixtisoslashuvi bir-biridan deyarli farq qilmaydi, shahar hosil qiluvchi omillarning kam rivojlanganligidan ularning soni ham oz. Mintaqa shaharlarining rivojlanishida avtomobil va temir yo‘llari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizning barcha hududlari ko‘p millatli. Nisbatan sanoatlashgan viloyat va shaharlarda mahalliy xalqlardan tashqari boshqa millat vakillari ham ko‘p [Toshkent](#), Navoiy viloyatlari, Chirchiq, Angren, Olmaliq, Zarafshon, Farg‘ona va boshqa shaharlar). [Shu bilan birga](#), Xorazm viloyati aholisi asosan bir millatli - 97,5 foiz aholi o‘zbeklardan iborat. O‘zbeklarning hissasi Toshkent shahri va viloyati hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida kamroq [8].

Urganch shahri hududi yer maydoni 0,03 kv.km ni tashkil qiladi. Urganch shahrida 40ta mahalla fuqarolar yig‘inlari va 56.5 ming ta oilalar mavjud. 2024-yilning 1-yanvar holatiga Urganch shahri aholisi son Xorazm viloyatining doimiy aholisi (1995,6 ming kishi)ning 7,7 foizini yoki 153,1 ming kishini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 kv. km. ga 5103 kishiga to‘g‘ri keladi [6].

Urganch shahrining doimiy aholisi soni: 2024-yilning 1-iyul holatiga Urganch shahrining doimiy aholisi soni 154 308 kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 %ga oshgan.

Aholi tarkibida erkaklar 77 231 kishini, ayollar 77 077 kishini tashkil qilgan. Aholi zichligi 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha 5 143 kishidan to‘g‘ri kelgan [9].

Tug‘ilish-ma‘lum avlodlarni tashkil etuvchi aholi guruhidagi bola ko‘rish jarayonidir. Tug‘ilish-biologik jarayon, lekin u, ijtimoiy-iqtisodiy muhit ta‘sirida o‘zgarib boradi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibidagi o‘zgarishlar tug‘ilish darajasini belgilaydi. Aholining tabiiy ko‘payish jarayonida tug‘ilish alohida o‘ringa ega bo‘lib, unga tabiiy-biologik, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ta‘lim darajasi kabi omillari ta‘sir ko‘rsatadi [5].

Aholining takror barpo bo‘lishi nafaqat, tug‘ilishga, balki o‘lim jarayoniga ham bog‘liq. O‘lim avlodlar almashinuvidagi asosiy jarayon hisoblanadi. Oxirgi yillarda dunyo sivilizatsiyasida, aholi o‘rtasidagi o‘lim ko‘rsatkichlarining pasayishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Shuni ham qayd qilish lozimki, yosh bolalar va go‘daklar o‘limi ko‘rsatkichlarining tahlili, mamlakatlar rivojlanish darajasini va aholi farovonligini aniqlab beradi.

Aholining yosh tarkibi – bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo‘yicha taqsimotidir. Aholining yosh tarkibi haqidagi ma‘lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”


Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

va demografik jarayonlarni tadqiq qilish uchun kerak bo‘ladi. Aholi yosh tarkibining xususiyatlarini anglash orqali istiqboldagi tug‘ilish va o‘lim tendentsiyalari, shuningdek, aholining takror barpo bo‘lishi haqida ilmiy asoslangan mulohazalar chiqarish mumkin. Ushbu xususiyatlarni bila turib, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda u yoki bu muammolarning vujudga kelish ehtimolini baholash, mehnatga layoqatli aholi va ishchi kuchining dinami-kasini prognozlashtirish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularga bo‘ljak talab, mintaqalarda saylovlarning natijalarini va shunga o‘xshash masalalarni bilish imkonini beradi [5].

Odatda, yosh tarkibi aholining jinsiy tarkibi bilan birgalikda tuziladi va ko‘rib chiqiladi. Bu holda u aholining yosh-jinsiy tarkibi deb nomlanadi, u har bir jinsning yoshlar bo‘yicha taqsimlanishini, har bir yoshda yoki har bir yosh guruhlarida jinslarning nisbatini ko‘rsatib beradi [2].

Ish o‘rinlarining yetishmasligi, ishsizlik, mehnat bozorining faol emasligi aholisi zich joylashgan voqa va vodiylarda ijtimoiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Aynan shuning uchun ham respublikada qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishga, qishloq sanoati va infratuzilmasini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng miqyosda rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu dolzarb masala davlatning mintaqaviy siyosatida o‘z yechimini topmog‘i lozim. 2023- yilda mehnat resurslar soni 134,2 ming kishini tashkil qiladi, shu bilan iqtisodiy faol aholi soni 90,2 ming kishini yoki mehnat resurslar sonining 67,2 foizni tashkil etgan.

1-jadval



“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Band bo‘lgan aholi soni 84,9 ming kishini tashkil qildi. Iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan band aholi darajasi 94,1 foizni tashkil etdi hamda ishsizlar soni 5,3 ming kishini tashkil qildi va iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan ishsizlik darajasi 5,8 foizni tashkil etdi.

2023-yilda ishga qabul qilinganlar soni 12 715 kishini tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan 229 kishiga ko‘paygan. Ishdan ketganlar 9 570 kishini tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan 797 kishiga kamaygan. Xulosa qilganda ish o‘rinlarida muqimlik o‘rtacha.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 07.02.2017 yildagi PF-4947-son O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. Abdurahmonov Q.X. Abduramanov X.X. “Demografiya”
3. A.Soliyev, S.Tashtaeva, M.Egamberdieva. Shaharlar geografiyasi. O‘quv qo‘llanma.-T., Universitet, 2018.
4. Z.N.Tojiyeva “Aholi Geografiyasi”
5. O‘zbekiston aholisi va mehnat resurslari statistika malumotlari.
6. Ата-Мирзаев О .Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность.Ташкент ИЖТИМОЙ ФИКР, 2009 С. 154-155.9.

Internet manbalar:

1. <https://urganchshahar.uz/uz/faoliyat/statistik-va-tahliliy-axborotlar/>
2. <https://muhaz.org/3-mavzu-ozbekiston-aholisi-va-mehnat-resurslari-reja.html?page=3>
3. <https://xorazmstat.uz/uz/matbuot-markazi/boshqarma-yangiliklar/15688-urganch-shahrining-doimiy-aholisi-soni-qanchaga-oshgan>
4. <https://kun.uz/news/2018/02/09/horazm-viloyatida-5-ta-yangi-kichik-sanoat-zonasi-taskil-etildi>